

“MEHNATSEVARLIK” KONSEPTINI IFODALAGAN INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Amirqulova Umida Normo‘minovna

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti

Xorijiy til va adabiyoti : ingliz tili ta’lim yo‘nalishi II bosqich magistranti

Djabborova Shoira Baltayevna

Termiz Davlat universiteti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqola ingliz va o‘zbek tilida “mehnatsevarlik” konseptini ifodalagan maqollarning milliy madaniyat va mentalitet bilan chambarchas bog‘liq jihatlari va lingvomadaniy tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: ingliz va o‘zbek xalq maqollari, lingvomadaniy tahlil, mehnatsevarlik va vaqtidalik tushunchalari, so‘qim, osh, tort, baliq, mushuk va ho‘llamoq leksemalari.

Annotation: This article is devoted to the linguistic and cultural analysis of proverbs expressing the concept of “hard work” in English and Uzbek, which are closely related to national culture and mentality.

Key words: English and Uzbek folk proverbs, linguistic and cultural analysis, concepts of hard work and punctuality, lexemes of beef, soup, cake, fish, cat and wet.

Maqollar xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lib, qaysi tilda yaratilmasin, ularning mavzu doirasi xilma-xildir. Biroq ayrim mavzudagi maqollar bir tilda ikkinchi tilga nisbatan ko‘proq uchrashi mumkin. Buning sababi ko‘p sonli maqollarni qamrab oluvchi mavzular xalq hayotining asosiy bo‘g‘inini tashkil qilishidadir, ya’ni, bunda aynan yaratuvchi xalqning o‘ziga xos mentaliteti, tarixi, udum va an‘analari kabilarning asosiy yetakchi rolda turadi. Mashhur tilshunos Vladimir Ivanovich Dal¹ aytganidek, “maqollar to‘plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog‘lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati”.

¹ Породоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование.– М.: Мол. Гвардия, 1985.- 121 с.


Oila, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, vatanni sevisish, do‘stlik va qarindosh-urug‘chilik munosabatlariga jiddiy qarash, insonlarni yaxshilikka da‘vat etish o‘zbek maqollarida yetakchi mavzular bo‘lsa, uy hayvonlariga bo‘lgan mehrning kuchliligi, inson qadrining ulug‘ligi ingliz xalq maqollarida ko‘proq gavdalanadi. Ingliz va o‘zbek tillarida yaratilgan maqollar orasida mehnat va mehnatsevarlik to‘g‘risidagi maqollar mavzusiga to‘xtalib o‘tsak. Mehnat qilgan insonning elda aziz bo‘lishi va xor bo‘lmasligi hamda mehnatsevarlik orqali obro‘ orttirishi kabilar qadim o‘tmish va hozirda ham o‘z tasdig‘ini topmoqda. Yaqin kelajakda ham aynan shu xislatlarga ega shaxslar jamiyatda e‘zozlanishi barchamizga sir emas.

“Mehnatsevarlik” konseptini ifodalagan ingliz va o‘zbek xalq maqollari lingvomadaniy obyekt sifatida quyidagicha tahlilga tortildi:

Ingliz xalqi azal-azaldan tartib-intizom va vaqtni qadrlaydigan xalqdir. Bu odat ularga 11-asrda orol-davlatga bostirib kelgan normandlardan meros bo‘lib qolgan² va inglizlar nihoyatda qadimgi ajdodlardan qolgan urf-odatlariga juda sodiq xalqdir. O‘sha davrdan buyon inglizlar o‘zlarida har bir ishni vaqtida bajarish odatini shakllantirganlar va buning natijasida butun mamlakat bo‘ylab inglizlar nazdida mehnatsevar inson deganda biznes uchrashuvlariga kech qolmaydigan, ishga vaqtida keladigan va topshiriqlarni o‘z vaqtida mehnatsevarlik va tirishqoqlik bilan bajaradigan xodim qiyofasini ko‘z oldiga keltiradilar. Shu sabab bo‘lsa kerak, mehnatsevarlikni ifodalagan ingliz xalq maqollarida ham vaqt bilan bog‘liq maqollar alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, **“Morning is the start of day’s work”** maqolidan anglashimiz mumkinki, inglizlar uchun mehnat kunining boshlanishi bu tongdir. Odatda ertalabki mazmunli oilaviy nonushtadan so‘ng, ko‘pgina inglizlar o‘z ish joylariga oshiqadilar va ular uchun ish vaqtining odatiy boshlanishi ertalabki soat sakkiz hisoblanadi. Bu odat faqat kechki smenada ishlaydiganlardan tashqari, deyarli mamlakatdagi barcha uchun doimiy kun tartibi hisoblanadi.

“Morning is the start of day’s work” maqolining aynan sinonimi emas, lekin erta uyg‘onuvchi mehnatkash kishilar haqida quyidagi inglizcha maqol ham mavjudki, unda erta uyg‘ongan insonlarning boshqalarga qaraganda ancha ko‘proq ish va yumushlari tezroq bajarilishiga ishora mavjud: **“Go to bed with the lamb and rise with the lark”** maqolining o‘zbekcha tarjimasida **“Qo‘zichoq bilan baravar uxlab, to‘rg‘ay bilan baravar uyg‘onmoq”** bo‘ladi. Bu maqolning o‘zbekcha

² <https://history-maps.com/uz/story/History-of-England>



ekvivalenti **“Erta turgan ish bitirar, kech turgan ko‘p turtinar”** maqolidir. Bu maqolda o‘zbek xalqining ham erta uyg‘onish va barvaqt ishlarni bitirishga xayrixohligi aks ettirilgan. Maqolning lingvomadaniy ahamiyati shundaki, barcha o‘zbek xonadonlarida erta sahardan turib, sigir sog‘ayotgan yoki hovli supurayotgan kelinlar, sahardanlab qo‘ylarini yaylovga olib chiqayotgan cho‘ponlar, quyosh chiqmasdan uyg‘onib, namoz o‘qiyotgan namozxonlar yoki tong sahardan biror ishga otlanayotgan ishchilar timsolida o‘zbek xalqining ertalabki kun tartibining boshlanishini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqollardan shuni anglashimiz mumkinki, ikkala xalq madaniyatida ham erta uyg‘onish mehnatsevar kishining alohida tahsinga loyiq bir fazilatidir, chunki erta uyg‘ongan inson sog‘lom, baquvvat va rizq-barakali bo‘ladi.

Inglizlar mehnat va mehnatsevar inson deb ko‘proq biznes va u bilan shug‘ullanuvchi insonlarni tushunadilar va biznes uchun vaqtning ahamiyati juda katta ekanligini yaxshi anglaydilar. **“Time is the soul of business”** and **“Punctuality is the soul of business”** maqollarida ham buning isbotini ko‘rishimiz mumkin. Bu maqollarning o‘zbekcha tarjimasini **“Biznesning ruhi bu vaqt/vaqtidalik”**dir. Haqiqatdan ham vaqt qilingan mehnatlar, chekilgan zahmatlar evaziga erishiladigan yutuqlar va natijalarga baho beruvchi eng oliy hakamdir. Bundan tashqari, har bir ishni vaqtida bajarish va ishni paysalga solmaslik bu haqiqiy mehnatsevar ingliz xalqining milliy mentalitetiga aylanib ketgan. Buning isboti sifatida quyidagi maqollarni misol keltirishimiz mumkin: **“Hour today, one is worth two tomorrow”**, **“Do not put off for tomorrow what you can do today”**, **“Do not delay today’s work until tomorrow”**, **“Do not leave to the morning the business of the evening”**, **“Never put off till tomorrow what you can do today”**. Bu inglizcha maqollarning barchasida bugungi ishni ertaga qoldirmaslik xayrli bo‘lishiga ishora mavjud. Ushbu maqollarning o‘zbekcha muqobili quyidagicha: **“Bugungi ishni ertaga qoldirma”**, **“Ishning omadi – o‘z vaqti”** va **“Ishni uyqusida bos”**. Bu maqollardan shuni anglashimiz mumkinki, har ikkala xalq vakillari ham mehnatsevarlikni qattiq ulug‘laydilar va har bir ishning o‘z vaqtida bajarilishi tarafdoridirlar.

Inglizlar uchun vaqt nihoyatda qadrli ekanligining va mehnat jarayonida o‘z vaqtidalikka nihoyatda qattiq amal qilishlarining yana bir eng ishonchli isboti sifatida London shahrining Vestminster saroyida joylashgan, o‘n uch tonnali ulkan soat – Big Ben minorasini misol qilishimiz mumkin. Bu ulkan soat minorasi uzoq

tarixga ega³ va u inglizlarning milliy g‘ururi hisoblanadi. Minoraning asl nomi “Soat minora” bo‘lib, “Big Ben” minora ichidagi ulkan qo‘ng‘iroqqa nisbatan berilgan nomdir va u rasmiy ravishda “Ulkan qo‘ng‘iroq” nomi bilan tanilgan hamda u Birlashgan Qirollikning sayyohlar doimo gavjum bo‘ladigan mashhur ham tarixiy, ham zamonaviy memorchilikning nodir namunasidir. Bu ulkan soat birinchi marta 1859-yilning 31-may kuni jaranglagan va uning yaratuvchi muhandisi Augustus Puginning neogeotik dizayni asosida minora ilk bor qad ko‘targan. Soatning ustki poydevorida lotin tilida “Domine Salvam Fac Regnam Nostrum Victoriam Primam”, ya’ni “O Lord, Qirolicha Victoria I ni himoya qil” degan mazmundagi iltijo duosi bitilgan. Ulkan soat har o‘n besh daqiqada jaranglaydi va uning jarangi sakkiz kilometr radiusga eshitiladi. Uning nomlanishi haqida yo hurmatli Lord Benjamin Xoll nomiga, yoki sharaflı bokschi Ben Kaantning sharafiga qo‘yilgan bo‘lishi mumkinligi haqida bahs-munozaralar yuradi. Ammo 2012-yil sentabr oyidan boshlab qirolicha Elizabeta II ning taxtdagi oltmish yillik yubileyiga atab minora nomini “Elizabeta minorasi” nomiga o‘zgartirildi⁴.

“**There is no cake without work**” maqolining o‘zbekcha tarjimasi “**Ishsiz tort ham yo‘q**” bo‘ladi va bu maqolda ishlamaydigan inson tort ham yeyolmaydi deb o‘z ma’nosida, ma’juziy ma’noda esa mehnatsiz hech qanday narsaga erishib bo‘lmasligi nazarda tutilgan. Bu ingliz maqolining lingvomadaniy ahamiyati shundaki, inglizlarda deyarli har kuni “beshlik choy” marosimi bo‘ladi va inglizlar bu marosimga alohida tayyorgarlik ko‘rib, turli shirinliklar, xususan, tort va pirojniylar tayyorlab, iste’mol qiladilar. Shu sabab bo‘lsa kerak, inglizlarning mehnatga doir maqollarida ham “cake – tort, biskvet” leksemasi uchraydi. Bu maqolning o‘zbekcha muqobilida “**Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar**” maqoli ikki qismli maqol turiga kiradi va bu maqol mazmunida mehnat qilgan kishining och qolmasligi, cho‘ntagida, albatta, puli va xonadonida o‘ziga yetarli ozuqasi bo‘lishi va yalqov insonning tanballigi sabab hech vaqosi bo‘lmasligi “tosh” so‘zi yordamida ifodalangan. Maqolda qo‘llangan “osh” so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁵da quyidagicha ta’rif berilgan:

1. [forscha so‘z bo‘lib, yovg‘on sho‘rva, xo‘rda, ovqat ma’nolarida keladi]. Pishirilgan issiq ovqat. Ugra osh. Xo‘rda osh. Sovchilarni yaxshi so‘zlar va quyuc-

³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Big_Ben

⁴ <https://uz.kuzminykh.org/1596-big-ben.html>

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 179 б.



suyuq oshlar bilan jo‘natib, ikkinchi kelishiga o‘ylashib javob beradigan bo‘ldilar. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

2. Umuman, har qanday ovqat, taom. Osh tuzi. Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich! Maqol.

3. aynan. Palov. Osh damlamoq. Ilgarilari lag‘mon yoki osh yeyish uchun nuqul korxonadan tashqariga chiqishga majbur bo‘lar edik. Gazetadan. – O‘ltiring, o‘ltiring, mehmon! – dedi usta Farfi. – Oshga sabzi bosildi-pishdi. A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.

4. etn. Ba‘zi munosabatlar bilan o‘tkaziladigan ziyofatlar nomining tarkibiy qismi sifatida. Masalan, qiz oshi, xotin oshi, arvoh oshi, maslahat oshi. “Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar” maqolida qo‘llangan “osh” so‘zi palov manosida ham keladi va bu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁶ da quyidagicha izohlangan:

1. Palov forschadan olingan so‘z. Asosiy masallig‘i guruch, yog‘, go‘sht va sabzidan iborat, qovurib, qaynatib va dimlab tayyorlanadigan quyuq ovqat; osh. No‘xatli palov. Mayizli palov. Xotinlar palovni damlagan vaqtda boy kelib qoldi. Oybek, tanlangan asarlar. Nigor oyim spool laganda palov keltirib, hammalari birga oshga o‘tirdilar. A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

O‘zbek milliy oshxonasida palov alohida ahamiyatga ega taom hisoblanadi. Yurtimizning turli viloyatlarida palovning ivitma palov, samovar palov, xalta palov, choyxona palov, qovurma palov kabi har xil turlari tayyorlanadi. O‘zbek xalqining barcha bayramlari, katta yig‘inlari, milliy sayllari, tug‘ilgan kunlari, diniy ayyomlari, to‘ylari, hasharlari, hatto ta‘ziralari ham palovsiz o‘tmaydi, chunki palov o‘zbeklarning sevimli, xushta‘m va shifobaxsh taomlaridan hisoblanadi. Palovning shifobaxshligi va kasalliklarning turlariga qarab palovning tayyorlanish usullari haqida mashhur olim va tabib bobomiz Abu Ali Ibn Sino o‘zlarining “Tib qonunlari” asarida bir qancha muhim tavsiyalarini ham yozib qoldirganlar. Taomlar shohi bo‘lgan palov o‘zbek milliy koloritining alohida ahamiyatga ega tarkibiy qismi hisoblanadi. Xalqimizning turmush tarzi va madaniyatining bir parchasi bo‘lgan palov, ya‘ni osh so‘zi bejizga mehnatsevarlikka oid o‘zbek xalq maqollarida ishlatilmasligiga yuqoridagi fikrlardan ham anglab olishimiz mumkin. O‘zbek tilida **“Ishlagan osh tishlar, ishlamagan tosh tishlar” maqolining “Ishchan oshini yer,**

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 223 б.



dangasa – boshini”, “Ishlaganning og‘zi oshga tegar, ishlamaganing og‘zi toshga tegar” kabi sinonimlari ham bor.

“Ishlagan so‘qim yer, ishlamagan to‘qim yer” maqoli ham yuqoridagi maqollarga sinonim hisoblanadi va bu maqol orqali ishchan, mehnatsevar kishi o‘zining halol rizq-nasibasini olishi, dangasalar esa “to‘qim”yeyishi, ya‘ni bu so‘z ma‘juziy ma‘noda qo‘llanganda “kaltak yeyish” va “tanbeh eshitish” nazarda tutilgan. Maqolda qo‘llangan “so‘qim” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”⁷da quyidagicha izohlangan:

1. So‘yish uchun semirtirilgan, bo‘rdoqi qoramol (buqa, ho‘kiz, sigir). So‘qim go‘shiti. So‘qim so‘ymoq. So‘qimga boqmoq. Xaloyiqqa endi ob-u osh berdi, Qancha qo‘y-u so‘qimlar so‘ydi. “Nurali”.

“Ishlagan so‘qim yer, ishlamagan to‘qim yer” maqolining lingvomadaniy jihatini quyidagicha izohlashimiz mumkin: O‘rta Osiyo xalqlarida, jumladan, O‘zbekistonda qo‘y va qoramol go‘shiti, ayniqsa, so‘qimga boqilgan buqa, ho‘kiz va sigir go‘shitlaridan tayyorlanadigan tandir kabob, kabob, osh, qaynatma sho‘rva, qovurma go‘shit va biqtirmalar sevib iste‘mol qilinadi va barcha to‘y-u marosimlar so‘qim go‘shitisiz o‘tmaydi. Shu sabab ham, o‘zbeklar o‘zlarining suygan kishilarini va mehmonlarini, ayniqsa, mehnatsevar va ishchan kishilarini ovqatlanib, kuch yig‘ib olishlari uchun ataylab so‘qim bilan siylaydilar va bu urf-odat mehnatsevarlikka oid o‘zbek xalq maqollariga ham ko‘chib o‘tgan.

“All cats love fish but fear to wet their paws” maqolining o‘zbekcha tarjimasini **“Barcha mushuklar baliqni yaxshi ko‘rar, ammo oyog‘ini ho‘llashdan qo‘rqar”**. Maqol ma‘juziy ma‘noda qo‘llangan bo‘lib, biror narsani yaxshi ko‘rgan odam uning mehnatidan ham qochmasligi zarurligi uqtirilgan. Mazkur maqol lingvomadaniy jihatdan tahlilga tortilganda shuni aytib o‘tishimiz joizki, maqolda qo‘llangan “cat-mushuk” so‘zi inglizlarning sevimli hayvoni mushuk ekanligi va **“fish-baliq”** so‘zi inglizlarning eng sevimli taomlaridan biri chipsi bilan birgalikda dasturxonaga tortiladigan qovurilgan baliq ekanligini isbotlasa, maqolda qo‘llangan **“to wet-ho‘llamoq”** so‘zi **“namlik, suvlik”** ma‘nolarini anglatadi va ingliz xalqining suv bilan o‘ralgan orol davlat ekanligini anglatadi. Shu sabab ham, mehnatni ulug‘lovchi ingliz xalq maqollarida ham suv bilan bog‘liq leksemalar qo‘llangan.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 669 б.



Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ingliz va o‘zbek xalqida mehnatsevarlik konsepti halol mehnat, rohat, muvaffaqiyat sifatida inson ongida gavdalanadi. Mehnatsevarlik ulug‘langan har ikkala xalq maqollarida ham shu xalqlarning milliy mentaliteti, urf-odatlari, turmush tarzi va azaliy qadriyatlari aks etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Порудоминский В.И. Жизнь и слово: Даль. Повествование.– М.: Мол. Гвардия, 1985.- 121 с.
2. Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – III ж. – 179-223-669 б.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. -T.: O‘qituvchi, 1990. - 303b.
4. Karamatova K.M., Karamatov H.S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – T.: Mehnat, –2000. –398 b.
5. <https://history-maps.com/uz/story/History-of-England>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Big_Ben
7. <https://uz.kuzminykh.org/1596-big-ben.html>

Research Science and Innovation House